

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti hamda Muxtor Auevov nomidagi Janubiy Qozog'iston Universiteti o'rtasidagi xalqaro hamkorlik



Muxtor Auevov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti 1943 yilda tashkil topgan bo'lib, dunyo oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi reytingida 500 talik qatoriga kiritilgan.



Mazkur universitetda 5 ta Oliy maktab, 7 ta fakultet, 2ta institut (masofadan o'qitish instituti hamda Oliy ta'limdan keyingi o'qitish-axborot markazi), 10 ta ilmiy-tadqiqot markazi, 3 ta ilmiy laboratoriya mavjud bo'lib, unda 136 turdagi bakalavriyat, 143 ta magistratura, 20 ta (Phd) doktorontura bo'yicha tahsil olish mumkin.



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti hamda Muxtor Auevov nomidagi Janubiy Qozog'iston Universiteti o'rtasidagi Xalqaro shartnoma doirasida 2021-yilning 11-12-noyabr kunlari "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish" kafedrasi dotsenti Vahobjon Rustamov shartnomada ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida mazkur universitetga tashrif buyurdi.



Universitetning madaniyat va san'at yo'nalishi bo'yicha kafedralarga kirib, u yerdagi o'qish va o'qitish sharoitlari bilan tanishdi. Ikki kun davomida rejissyorlik, aktyorlik va ijtimoiy-madaniy dam olish ta'lim yo'nalishlarida mahorat darslarini o'tkazdi va institut rahbariyatining "Alg'is xat", ya'ni "Tashakkurnoma"siga ega bo'ldi.



Ushbu universitetning ilmiy salohiyati yuqori bo'lgan professor-o'qituvchilar institutimizga taklif qilindi. Ular institutimiz rektori, filologiya fanlari doktori, professor Yo'ldoshev Ibrohim Jo'rayevich nomiga arizalarini yozib, bizlar bilan hamkorlik qilishga sidqidildan roziliklarini bildirdilar.

Matbuot kotibi